

HUQUQSHUNOSLIK DARSLARIDA “SKARABEY” METODINING QO’LLANILISHI

Buxoro shahar kasb-hunar maktabi

Huquq fani o’qituvchisi

Alimova Dilfuza Obidovna

Annotatsiya: Maqolada ta’lim metodlari, jumladan davlat va huquq asoslari fanida Skarabey metodidan foydalanan bosqichlari haqida so’z boradi.

Tayanch so’zlar: talim, pedagogik jarayon, metod, pedagogik texnologiya , skarabey metodi.

Ta’lim metodlari muayyan pedagogik jarayonda ko’zda tutilgan maqsadlarga erishish uchun bajarish lozim bo’lgan vazifalarni amalga oshirishda qo’llaniladigan turli-tuman ish usullari va shakllarini o’z ichiga oladi. Bu ishlarning amalga oshirilishi shakllangan va amaliyotga qo’llanilayotgan turli usullari va shakllari asosida ko’plab ta’lim metodlari xosil bo’lgan va bu jarayon davom etmoqda. Muayyan ta’lim-tarbiyaviy maqsadga qaratilgan biror harakatni amalga oshirish yo’li, usuli yoki ko’rinishidan iborat bo’lib shakllangan faoliyat shu maqsadga erishishga xizmat qiluvchi o’ziga xos ta’lim metodini xosil qiladi. Bunda harakatni amalga oshirish yo’li deb bajarilishi talab qilinayotgan faoliyat uchun qo’llash mumkin bo’lgan bir necha yo’llardan oldindan ko’zda tutilgan maqsadga muvofiq ravishda tanlangan yo’lni anglaydi. Ana shunday metodlardan biri “ Skarabey” metodi bo’lib , Skarabey- “ qo’ng’iz ” – har tomondan kovlab chiquvchi ma’nosini bildiradi. Ushbu metod interaktiv texnologiya asosida u o’quvchilarda fikriy bog’liqlik, mantiqiy xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muommoni hal qilishda o’z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya o’quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o’rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U, ayni paytda, turli g`oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog’liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi. «Skarabey» texnologiyasi har tomonlama bo’lib, undan o’quv materialining turli bosqichlarini o’rganishda foydalilanadi:Masalan, davlat va huquq asoslari fanining Prosessual huquq mavzusida qo’llash bo’yicha yo’riqnomalar bilan tanishamiz; Jinoyat Protsessesi va uning huquqni muhofaza qilish faoliyatidagi o’rni; Jinoyat Protsessual qonun hujjatlari; Jinoyat Protsessi ishtirokchilar; Jinoyat Protsessida dalillar; Tergov harakatlari; Isbotlash vositalari; Protsessual majburlov; Jinoyatlarning oldini olish chorralari; Protsessual muddatlar va chiqimlar; Dastlabki tergovning umumiyligi shartlari;Jinoyat protsessida gumon qilinuvchi va ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish; Dastlabki tergovni to’xtatish va qayta tiklash, tamomlash ; Sudlovga tegishlilik va jinoyat ishini sudda ko’rish uchun tayinlash; Sud muhokamasi bosqichi; Hukm; Ajrim qarorlarning qonuniyligi, asosliligi va adolatlilagini tekshirishning umumiyligi shartlari; Apellatsiya tartibida ish yuritish; Kassatsiya tartibida ish yuritish; Voyaga yetmaganlar ishlarini yuritish; Yarashuv

to'g'risidagi ishlarni yuritish; Amnistiya aktini qo'llash to'g'risidagi ishlarni yuritish;singari tushunchalrni o'quvchilarga ta'lif berish orqali dars bosqichlarida qiyudagi jadvalda berilgani kabi tushuntirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Darsning boshida O'quvchilarning o'quv faoliyatini rag'batlantirish

Darsning o'rtasida O'quv materiallarining mohiyati va mazmunini belgilash

Darsning oxirida O'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash va mashg'ulotni yakunlash

•mavzuni o'rganish jarayonida-uning mohiyati, tuzilishi va mazmunini belgilash; ular orasidagi asosiy qismlar, tushunchalar, aloqalar xarakterini aniqlash; mavzuni yanada chuqurroq o'rganish, yangi jihatlarini ko'rsatish;

•oxirida-olingo bilimlarni mustahkamlash va yakunlash maqsadida. «Skarabey» texnologiyasi o'quvchilar tomonidan oson qabul qilinadi, chunki u faoliyatning fikrlash, bilish xususiyatlari inobatga olingan holda ishlab chiqilgan. U o'quvchilar tajribasidan foydalanishni ko'zda tutadi, reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o'tkazish imkoniyatlariga ega. Mazkur texnologiyaning ayrim afzallikkari sifatida idrok qilishni yengillashtiruvchi chizma shakllardan foydalanishni ko'rsatish mumkin.

«Skarabey» alohida ishlarda, kichik guruhlarda hamda o'quv jamoalarida qo'llanilishi mumkin.

Ta'lidan tashqari mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- o'zgalar fikriga hurmat;
- jamoa bilan ishlash mahorati;
- faollik;
- xushmuomalalik;
- ishga ijodiy yondashish;
- imkoniyatlarini ko'rsatish ehtiyoji;
- o'z qobiliyati va imkoniyatlarini tekshirishga yordam beradi;
- «men»ligini ifodalashga imkon beradi;
- o'z faoliyati natijalariga ma'sullik va qiziqish uyg'otadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Avlayev O.U. Muammoli ta'lanning psixologik asosi.-T.:2014y

2.Ayupov T.X,Axmадjonov X.I., Imomqoriyev Sh.R.Samarali ta'lif berish usullari. – T.: 2003y

3.Azizxo'jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogic maxorat. O'quv qo'llanma. T-: 2006

4. Muslimov N. A. Innovatsion ta'lif texnologiyalari va pedagogik kompetentlik moduli bo'yicha o'quv uslubiy majmua. T.: 2016y

5.Olimov K.D. Zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalari bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar moduli bo'yicha o'quv – uslubiy majmua.T.: -2015y

6. B. A. Mirenskiy, A. X. Rahmonqulov, D. Kamalxodjayev, V. V. Kadirova va boshqalar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat prossesi T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012.

7. Avlayev O.U., Jo'rayeva S.N., Mirzayeva S.R. Ta'lim metodlari.T.: 2017y